

## JADIDCHILIK FAOLIYATI VA ULARNING NAMOYANDALARI

*Misaboyeva Mohinura Baxtiyorovna*

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti "Gumanitar fanlar"  
fakulteti 1-bosqich magistri*

*Abdullayeva Kamola Sherzod qizi*

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti "Gumanitar fanlar"  
fakulteti tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Turkiston hududida XXasrda paydo bo'lgan jadidchilik harakati va ularning yirik vakillari haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Jadidlar tomonidan asos solingan maktablar va ularning faoliyati haqida ham qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik harakati, jadidlar, Ismoil G'aspirali, yangi usul maktabi, ma'rifat, milliy g'oya, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy

Har bir jamiyatdagi o'zgarishlar o'z davrining tarixiy sharoitidan kelib chiqib namoyon bo'ladi. Bu o'zgarishda tarixiy shaxslar, ayniqsa, ziyolilarning o'rni katta bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. Turkiston o'lkasida bunday ma'rifatparvarlik harakati XIX asr 2-yarmi XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakatidir. Qrim-tatar ma'rifatparvari Ismoil G'aspirali (1851-1914) butun turkiy xalqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. Lug'aviy jihatdan "Jadid" so'zi arabchadan tarjima qilinganda "yangi" degan ma'noni anglatadi. Ismoil G'aspirali 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroyda birinchi jadid usulidagi yangi usul maktabiga asos soladi. U 1881-yilda "Rusiya musulmonligi" asarini yozadi. Asarda: "Rusiya musulmonlari uchun bugun birinchi masala ma'rifatdir. Qolgani ma'rifatdan keyin, to'g'rirog'i, ma'rifatdan boshlanadi. Millatning savodi o'z tilida chiqmog'i kerak. Milliy tarbiya, muqaddas g'oyalar avlodning ongi tafakkuriga ona tilida singmog'i kerak. "Sut bilan kirgan" degan iborada gap ko'p[1]", - deb yozar ekan, bu orqali ona tilining har bir inson hayotidagi o'rni, jamiyat va millat hayotida ma'rifatning o'rni naqadar beqiyos ekanini bilib olishimiz mumkin. Ma'rifatli millat va xalqni hech qanday tashqi dushmanlar yenga olmaydi. Shuning uchun ham Turkiston hududida ko'plab jadidchilik maktablari ochilgan.

O'rta Osiyodagi milliy taraqqiyparvarlik harakatlari hududiy xususiyatiga ko'ra Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlariga bo'linadi. Har bir davrda biror yangi g'oyaning tug'ilishi aniq tarixiy sharoitda sodir bo'ladi. Unda tarixiy shaxslarning o'ynaydigan rolini hech kim inkor etmaydi. Chunki ular yetilgan muammolarni hal qilish yo'llarining nazariy tomonlarini barchadan teranroq idrok qiladilar, ularni amalga oshirishga favqulodda kuch va g'ayrat bilan kirishadilar. Jadidlar orasidan yetuk

olimlar, sanoat va ziroatchilik sohaslarining bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari, yozuvchi va shoirlar ham yetishib chiqib, Ular yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda fidoiylarcha kurashdilar.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi:

- yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish;
- qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish;
- turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr gruppalari tuzish;
- gazeta va jurnallar chop qilish;
- xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.[2]

Jadidchilik harakatining asosiy g'oya va maqsadlari ham aniq edi. Ular Turkistonni o'rta asrchilikdan, feodal qoloqlikdan, xurofotlardan ozod qilish; "usuli qadim" ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish; Milliy davlat bunyod etish kabi maqsadlarni o'z faoliyatlarining asosi qilib olishgan.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919)ning xizmati katta bo'ldi. Behbudiy avval Samarqand, so'ngra Buxoroda tahsil olgan. Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'l boshchisi bo'lgan. Behbudiy birinchi o'zbek jurnali - "Oyina" jurnalining asoschi. U I. Gasprinskiy bilan yaqin aloqada bo'lgan. Gasprinskiy muharrirligidagi "Tarjumon" gazetasining doimiy o'quvchisi bo'lib, o'zi ham bu gazetaga ko'plab maqolalar jo'natib turgan.[3] Mahmudxo'ja 200 dan ziyod o'zbek va tojik tillaridagi nashrlar muallifi. Xususan, "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" - "Kiskacha umumiy jug'rofiya" (1903), "Kitob-ul-atfol" - "Bolalar uchun kitob" (1904) va boshqalar. Behbudiyning yozuvchilik poydevori nuqtasi 1911-yil Samarqandda yozilgan "Padarkush" dramasi sanaladi. Unda yosh avlod ma'lumotli va madaniyatli bo'lishi kerakligi, aksi bo'lsa katta ko'ngilsizliklar chiqishi mumkinligi aks etgan. "Padarkush" birinchi o'zbek dramasi edi. 3 parda 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo'lib, o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini „milliy fojia“ deb atagan. Drama ilk bor 1912-yil "Turon" gazetasida bosib chiqarilgan, 1913-yilda esa alohida kitob ko'rinishida nashr etilgan.[4] Asarning nashr qilishiga chor senzurasini yo'l qo'ymaydi. „Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining 100 yillik yubileyi sanasiga bag'ishlanadi“ degan vaj bilan Tiflis (Tbilisi) senzurasidan o'tkazadi. Drama 1913-yil bosilib chiqqan, ammo sahnaga qo'yish uchun yana bir yilcha vaqt ketadi. Asar Samarqandda 1914-yil 25-yanvarda sahnaga qo'yildi. Drama xalqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi. „Padarkush“ ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo'ldi. Drama Toshkentda 1914-yil 27-fevralda Avloniy tomonidan qayta sahnalashtiriladi.[5] Mazkur asar haqiqatdan ham Behbudiy ta'kidlaganidek milliy fojiadir. Sababi asarda

o'z pullariga ishongan boy bolasini bilim olishini ta'minlamaydi. Natijada uning o'g'li ko'chadagi bezorilarga qo'shilib hatto o'z uyidan pul o'g'irlashgacha boradi. Shu darajaga yetadiki asar oxirida hatto o'z otasini o'limiga sabab bo'lib, "Padarkush" yani "ota qotili" degan nomni oladi. Bu ishlarning barchasi bolaning o'qimaganligi sababli sodir bo'ladi.

Yana bir yirik jadidchilik harakatining namoyandasi Abdulla Avloniydir. U 1878-yil Toshkent shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan. U maktab va madrasada ta'lim olib o'z zamonasining ma'rifatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo'shildi. Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanildi. 1906-yildan she'rlari bilan matbuotda qatnasha boshlagan. Arab, fors, rus tillarini o'rganib, bu tillarda ijod qilgan mutafakkirlarning asarlarini o'qigan, ba'zilar (masalan, Lev Tolstoy, Konstantin Ushinskiy asarlari) ni o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1906-yilda „Taraqqiy“, 1907-yilda o'z uyida „Shuhrat“ gazetalarini chiqargan. Bu gazetalar yopib qo'yilgach, 1908-yilda yashirin ravishda „Osiyo“ gazetasini nashr etdi. 6-sonidan so'ng hukumat bu gazetani ham taqiqlab qo'ygan. Avloniy birinchi bo'lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o'qitish taklifini beradi. Ilg'or g'oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi: Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bolalari uchun yangi usul maktabi ochib (1908), o'zi ona tili va adabiyotdan dars berdi. 1909-yilda „Jamiyati xayriya“ tuzib, yetim bolalarni o'qitgan. Shu yili „Adabiyot yoxud milliy she'rlar“ nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr ettirgan. 1912-yilda Avloniy Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan. Bu maktabda dunyoviy fanlar o'qitilishi bilan maktabxonalaridan farq qilgan.

Avloniy yangi maktablar uchun qo'llanma va o'qish kitoblar yozib, nashr qildirgan (masalan, „Birinchi muallim“, 1911; „Ikkinchi muallim“, 1912; „Turkiy guliston yoxud axloq“, 1913; 4 juzd (qism) li „Adabiyot yoxud milliy she'rlar“ to'plami, 1909—1915; „Maktab gulistoni“, 1915; „Mardikorlar ashuvlasi“, 1917 va boshqalar). Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo'jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jayev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan birgalikda „Nashriyot“ (1914), „Maktab“ (1916) shirkatlarini tashkil etgan.[6] Avloniy xalq ongini oshirish uchun teatr san'atidan ham foydalangan. U 1913-yilda „Turkiston“ nomli teatr truppasini tashkil etishda va uning ishida faol qatnashgan. 1910—1916-yillarda bir qancha sahna asarlarini tarjima qildi va o'zi sahnalashtirdi. Avloniyning sahna asarlari Toshkent, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Xo'jand kabi shaharlarda qo'yilgan. Bu asarlarda XX asr boshlaridagi Turkiston hayotining keng manzaralari o'z ifodasini topgan. Avloniy truppasida Mannon Uyg'ur tarbiya topgan; truppa bilan Hamza, Ozarbayjon dramaturglari Uzayr Hojibekov, Ruhullo hamkorlikda bo'lgan. Oktyabr inqilobidan keyin xalqqa va'da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida tushkunlikning paydo bo'lishiga olib keldi („Xafalik soatda“ she'ri, 1919)[7].

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati mahalliy aholini ma'rifatli qilish maqsadida XX asrda paydo bo'lgan edi. Harakatning asosiy maqsadi - millatimizni savodli qilish orqali yurtni istiqbolga olib chiqishdan iborat edi. Ular bilim bilan birgalikda tarbiyaga ham katta e'tibor berishgan. Buni Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot ,yo najot -yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir", - degan so'zlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Insonning shaxs sifatida kamol topishida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida ilm ma'rifat va ta'lim tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham jadidlar aynan shu sohalarni isloh etishga katta e'tibor berganliklarini ko'rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1] Begali Qosimov - Milliy uyg'onish : Jasorat, Ma'rifat, Fidoyilik. Toshkent Ma'naviyat -2002 19-bet

[2] Jonuzaqov Adhamjon Abdullahatovich : " Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi" mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish 2022 50-bet

[3] Usmonaliyeva M. The father of Modernists Turkistan – Behbudiy and a subject of education in his Journalistic activity. American journal of language, literacy and learning in STEM Education. Pp.399-402

[4]<https://arboblar.uz/uz/people/bekhbudi-makhmudkhodzha>

[5] Rizaev Sh. „Padarkush“ yohud [Samarqand](#) tarixidan lavhalar". „[Vatan](#)“ gazetasi, 1994-yil, 39-son.

[6] „[Abdulla Avloniy Hayoti va Ijodi](#)“. *tafakkur.net*. 28-avgust 2023-yil.

[7] "Avloniy" [O'zME](#). [A-harfi](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil